| <i>Murodova Farangis G'anisherovna</i>                                                                                                                  |     |
| Kichik yoshdagi o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish yo'llari.....                                                                             | 454 |
| <i>N. Abduvaliyeva, M. Odinajonova</i>                                                                                                                  |     |
| Kichik maktab yoshidagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar shaxslararo munosabatini korreksiyalashda ertak terapiyasidan foydalanish .....                 | 458 |
| <i>Nig'matova Nodirabegim Lutfillo qizi</i>                                                                                                             |     |
| Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish .....                                             | 463 |
| <i>O'rinova Ro'zigul Jumanazar qizi</i>                                                                                                                 |     |
| Voleybol o'yinida blok qo'yish texnikasini o'rgatishda yangi pedagogik yondashuvlar .....                                                               | 467 |
| <i>Qambarov Kozimjon</i>                                                                                                                                |     |
| Texnik yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarga ingliz tilini o'qitishning yangi texnologiyalari .....                                                  | 472 |
| <i>Babayeva Gulnozaxon Latibjonovna</i>                                                                                                                 |     |
| Maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda pedagog malakasining roli .....                                                                                  | 481 |
| <i>Davlatova Dildora Nuriddinovna</i>                                                                                                                   |     |
| Talabalarda sog'lom turmush tarzini rivojlantirishning pedagogik tamoyillari .....                                                                      | 485 |
| <i>Davronov Nurzod Ismoilovich</i>                                                                                                                      |     |
| Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar: toifalari va tasniflash mezonlari .....                                                                             | 490 |
| <i>Djurayeva Sohiba Barat qizi</i>                                                                                                                      |     |
| Blum taksonomiyasiga asoslanib boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish usullari.....                                 | 495 |
| <i>Husenova Aziza Sharipovna</i>                                                                                                                        |     |
| Tabiiy fan darslari jarayonida o'quvchilarda loyihaviy ishlarni tashkil etish ko'nikmasini shakllantirish .....                                         | 498 |
| <i>Matniyazova Diyora Jumanazarovna</i>                                                                                                                 |     |
| Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari: innovatsion taraqqiyot, metodik yangiliklar va istiqbollari .....                 | 501 |
| <i>Nazarova Mohigul Akmalovna, Asatova Mashhura Asomiddin qizi</i>                                                                                      |     |



|                                                                                                                                                              |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Kasbiy pedagogikani shakllantirish va rivojlantirish masalalari .....                                                                                        | 506 |
| Sanaqulov Xamroqul Rizaqulovich                                                                                                                              |     |
| O'qituvchining shaxsiy fazilatlar va suggestiv kompetentligining o'zaro bog'liqligi .....                                                                    | 513 |
| Shermatova Manzura Ikromjanovna                                                                                                                              |     |
| Tez qalamchizgilarda innovatsion texnologiyalarni qo'llash tajribasi .....                                                                                   | 518 |
| Suyunov Navro'z Alisher o'g'li                                                                                                                               |     |
| Kognitiv tilshunoslik asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish .....                                                                | 523 |
| Teshabiyev Dilmurod Raxmadjonovich, Madazimova Muxlisa Abdurashid qizi                                                                                       |     |
| Kombinatorik masalalar asosida ijodiy topshiriqlarni tuzish va ularning o'quvchilarga ta'siri .....                                                          | 526 |
| Toshboyeva Saida Rahmonberdiyevna, Yusupova Latofat Abduqodir qizi                                                                                           |     |
| Linguodidactic Foundations for Enhancing Professional Competence<br>in Practice-Oriented Language Education .....                                            | 530 |
| Uktamova Navruza Botir qizi                                                                                                                                  |     |
| Audiovizual usul qo'llanilganda o'quvchilarning til ko'nikmalaridagi o'zgarishlarni baholash .....                                                           | 535 |
| Umarov Aziz Avazovich                                                                                                                                        |     |
| Ona tili – ART texnologiya va kreativlik fanida so'z san'atining omili sifatida .....                                                                        | 540 |
| X. Sanaqulov, Sh. Nurmatova                                                                                                                                  |     |
| Etnopedagogik yondashuvning boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri .....                                                         | 543 |
| Xamroqulova Xilola Qosimjon qizi                                                                                                                             |     |
| Ajdodlarimiz o'g'itlari asosida o'quvchi-yoshlarda axloqiy sifatlarni shakllantirish texnologiyasi .....                                                     | 547 |
| Xatamova Nilufar Xaydarovna                                                                                                                                  |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ o'qish madaniyatini rivojlantirishda generativ<br>sun'iy intellekt texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari ..... | 550 |
| Xayitova Firuza Abdullayevna                                                                                                                                 |     |
| Rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta'limning mazmuni va tarixiy taraqqiyoti .....                                                                        | 554 |
| Yoziyeva Umida Lutfullayevna                                                                                                                                 |     |
| O'quv vaziyatlarini loyihalash orqali talabalar o'quv faolligini oshirish .....                                                                              | 558 |
| Zakirova Dilfuza Sayidolimovna                                                                                                                               |     |
| O'quvchilar orasida jismoniy faollikni oshirish uchun yangi ilmiy yondashuvlar .....                                                                         | 561 |
| Zaynobidinov Dilshodbek Qobilovich                                                                                                                           |     |
| Активные методы обучения как коммуникационная основа современного урока .....                                                                                | 566 |
| Ахмедова Мукаддас Ходиматовна                                                                                                                                |     |
| Инклюзия как путь к равным возможностям: развитие системы образования Узбекистана .....                                                                      | 570 |
| Баротова Шохсанам Бахтиёр кизи, Мауш Ребия Джамshedовна, Мурадова Дилфуза Махмудовна                                                                         |     |
| "Qurilish konstruksiyalari" fanini o'qitishda kasbiy-amaliy kompetentlikni rivojlantirish .....                                                              | 576 |
| No'manova Soxiba Ergashboyevna                                                                                                                               |     |
| Креативный педагогический подход в музыкально-теоретических и<br>практических занятиях по искусству макома .....                                             | 582 |
| Нурматова Фируза Муминовна                                                                                                                                   |     |
| Система упражнений по методике обучения средствам речевой выразительности<br>узбекского языка .....                                                          | 587 |
| Фаттахова Д. А.                                                                                                                                              |     |
| Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan o'qitish modellari .....                                                                                             | 592 |
| Ernazarov Alisher Ergashevich, Chinqulova Gulmehra                                                                                                           |     |
| The Concept of Symbols in Linguoculturology .....                                                                                                            | 598 |
| Hamraqulov Gulandom Sodiq qizi                                                                                                                               |     |
| Raqamli o'yinlarga (mobile games) qaramlikning kognitiv samaradorlikka salbiy ta'siri .....                                                                  | 601 |
| Turamov Muhammadzohid Rustamjon o'g'li                                                                                                                       |     |
| OTM talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash asosida ilmiy tadqiqot ishlariga<br>yo'naltirishning zamonaviy metodlari .....                            | 605 |
| Sobirov Zahriddin Sadriddinovich                                                                                                                             |     |
| Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda kiriyativlikni rivojlantirish .....                                                                                     | 609 |
| Qo'chqarov Mirzavali Qo'zibayevich                                                                                                                           |     |
| Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirish .....                                                             | 613 |
| Yaqubova Dinora Bahodirovna                                                                                                                                  |     |
| Zamonaviy ta'lim tizimida AR (Augmented Reality) texnologiyalarining qo'llanilishi .....                                                                     | 617 |
| Abdumo'minov Burxonjon Sunnatillo o'g'li                                                                                                                     |     |

|                                                                                                                                                                 |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| The Role of Psychological Support in the Formation of Students' Socio-Emotional Competence in Preschool Education .....                                         | 622 |
| <a href="#">Kamoliddinova Diyora Jaloliddin qizi</a>                                                                                                            |     |
| Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi .....                                                                    | 626 |
| <a href="#">Xudoynazarova Moxira Xakimovna</a>                                                                                                                  |     |
| Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini metodlar orqali rivojlantirish .....                                                     | 629 |
| <a href="#">Ro'zmetov Ravshan Sharipbayevich</a>                                                                                                                |     |
| Bo'lajak tarbiyachilarda muloqot madaniyatini tarbiyalash .....                                                                                                 | 633 |
| <a href="#">Uljayeva Sevara Abdirazzoqovna</a>                                                                                                                  |     |
| Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan zamonaviy darsliklar tuzilishi va mazmuni .....                                                                          | 638 |
| <a href="#">Po'latova Marjona Inomjon qizi</a>                                                                                                                  |     |
| STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limida qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar .....                                                                   | 643 |
| <a href="#">Saidova Nigora Olimovna, Pirmatova Zaynabxon Elmurod qizi</a>                                                                                       |     |
| Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish .....                                                | 646 |
| <a href="#">Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi</a>                                                                                                                 |     |
| O'quvchilarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning shakllanishi va uning dolzarb muammolari .....                                                                  | 650 |
| <a href="#">Gaparova Mastona Safaraliyevna</a>                                                                                                                  |     |
| Adabiyot darslarini o'qitishda 5E modelidan foydalanish .....                                                                                                   | 654 |
| <a href="#">Abdiraupova Zarnigor Abdinabi qizi</a>                                                                                                              |     |
| Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan o'qitish modellari .....                                                                                                | 657 |
| <a href="#">Ernazarov Alisher Ergashovich, Chinqulova Gulmehra</a>                                                                                              |     |
| Traditional Techniques and Modern Approaches in the Production of National Costumes .....                                                                       | 665 |
| <a href="#">Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi</a>                                                                                                                |     |
| Pedagogik platformalar va kognitiv-didaktik yondashuvlar integratsiyasi yordamida talabalarning kasbiy tayyorgarlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish ..... | 668 |
| <a href="#">Raxmonov Omadjon Mamasidiq o'g'li</a>                                                                                                               |     |
| Aqli zaif o'quvchilarda disgrafiyaning bartaraf etishda assistiv texnologiyalarning ahamiyati .....                                                             | 672 |
| <a href="#">Usmonov Umid Allayorovich</a>                                                                                                                       |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish .....                                                                         | 676 |
| <a href="#">Adizova Nigora Baxtiyorovna, Akbarova Sarvinovna Sadriiddinova</a>                                                                                  |     |
| Tadqiqotchilik kompetentligi pedagogik muammo sifatida .....                                                                                                    | 681 |
| <a href="#">Ergashev Nozim Nabiyeovich</a>                                                                                                                      |     |
| Teaching Reading to Young Learners: Essential Principles for Primary School Teachers .....                                                                      | 684 |
| <a href="#">Toshtanova Maftuna Xamidjon qizi</a>                                                                                                                |     |
| Tarmoq qurilmalari va tizimlarini boshqarish modulini o'qitish orqali o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash .....                                          | 687 |
| <a href="#">Karimova Charos Abduhalim qizi</a>                                                                                                                  |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutq rivojlanishining psixolingvistik asoslari .....                                                                     | 691 |
| <a href="#">Musayeva Nafisa Kudratovna, Muxammadova Saodat Muzaffar qizi</a>                                                                                    |     |
| "Kasbiy ma'naviyat" fani bo'lajak pedagoglarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni intensiv rivojlantirish omili .....                                           | 695 |
| <a href="#">Ismoilov Yoqubjon Quchqarboyevich</a>                                                                                                               |     |
| Yapon tilini o'rgatishda talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish: tamoyillar, bosqichlar va innovatsion usullar .....                                | 699 |
| <a href="#">Baqoyev Navro'zjon Abdullo o'g'li</a>                                                                                                               |     |
| Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....                                    | 705 |
| <a href="#">Zokirova Nargiza Akbarjonovna</a>                                                                                                                   |     |
| Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik asoslari .....                                                                        | 710 |
| <a href="#">Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</a>                                                                                                                 |     |
| Ta'lim islohotlari sharoitida genderga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari .....                                                 | 714 |
| <a href="#">Yaxyayeva Sojida Abduraximovna</a>                                                                                                                  |     |
| Ko'rsatish olmoshlarining vazifaviy uslublarda qo'llanilishi .....                                                                                              | 718 |
| <a href="#">Berdiyeva Malika</a>                                                                                                                                |     |
| Nazorat turlari orqali o'quvchilarning savodxonlik kompensatsiyasini shakllantirish .....                                                                       | 721 |
| <a href="#">Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi</a>                                                                                 |     |



|                                                                                                                                                           |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Zamonaviy boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ..... | 726 |
| <b>Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi</b>                                                                                                                 |     |
| Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari: innovatsion taraqqiyot, metodik yangiliklar va istiqbollari .....                   | 731 |
| <b>Nazarova Mohigul Akmalovna</b>                                                                                                                         |     |
| Maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini takomillashtirish: muammolar va yechimlar .....                | 736 |
| <b>Arabova Muxiba Bazarovna</b>                                                                                                                           |     |
| Помощь советского государства в подготовке кадров для арабских государств .....                                                                           | 740 |
| <b>Хомидова Камола</b>                                                                                                                                    |     |
| Место Узбекистана в развитии культурной сферы Советского союза во второй половине XX века ..                                                              | 744 |
| <b>Бекназаров Собиржон</b>                                                                                                                                |     |
| Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni .....                                             | 748 |
| <b>Sharifov Shoxjaxon To'liqinjon o'g'li</b>                                                                                                              |     |
| Ekonometrika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va istiqbollari .....                                 | 752 |
| <b>Bobonorova Qundizxan Quralbay qizi</b>                                                                                                                 |     |
| O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi ..                                        | 759 |
| <b>Bobonazarov Orif Abrayqulovich</b>                                                                                                                     |     |
| Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане ..                                                              | 764 |
| <b>Мусаева Елена Казимовна</b>                                                                                                                            |     |
| Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi .....                                                             | 767 |
| <b>Sh. L. Rahmonova</b>                                                                                                                                   |     |

# MAKTAB VA PEDAGOGIKA INSTITUTLARI O'RTASIDA AMALIYOTGA YO'NALTIRILGAN DUAL TA'LIM MODELINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Arabova Muxiba Bazarovna

Termiz davlat pedagogika instituti (O'zbekiston)  
rus tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab va pedagogika institutlari o'rtasidagi hamkorlik asosida shakllantirilayotgan amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modeli o'rganiladi. Dual ta'limning zamonaviy pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonidagi o'rni, uning afzalliklari, mavjud muammolari hamda takomillashtirish yo'nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. O'zbekiston ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyalarga ega mutaxassis sifatida tayyorlash jarayonida maktab–oliy ta'lim muassasalari integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari dual ta'limni samarali boshqarish, pedagogik amaliyot jarayonlarini standartlashtirish, mentorlik tizimini kuchaytirish hamda maktab va institutlar o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** dual ta'lim, pedagogik amaliyot, maktab–oliy ta'lim integratsiyasi, kasbiy kompetensiya, mentorlik, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, innovatsion pedagogika, ta'lim sifati, zamonaviy o'qituvchi.

**Abstract:** This article examines a practice-oriented dual education model formed through cooperation between schools and pedagogical institutes. The study provides a scientific analysis of the role of dual education in modern teacher training, highlighting its advantages, existing challenges, and key directions for improvement. In the education system of Uzbekistan, the integration of schools and higher education institutions plays a crucial role in preparing future teachers as professionally competent specialists. The research findings emphasize the need for effective management of dual education, standardization of teaching practice processes, strengthening of mentoring systems, and improvement of mutually beneficial cooperation mechanisms between schools and pedagogical institutes.

**Key words:** dual education, pedagogical practice, school–higher education integration, professional competence, mentoring, practice-oriented education, innovative pedagogy, quality of education, modern teacher.

**Аннотация:** В статье рассматривается практико-ориентированная модель дуального образования, формируемая на основе сотрудничества школ и педагогических институтов. Научно анализируются роль дуального образования в системе подготовки современных педагогических кадров, его преимущества, существующие проблемы и направления совершенствования. В образовательной системе Узбекистана интеграция школы и высших учебных заведений имеет важное значение в процессе формирования профессиональных компетенций будущих учителей. Результаты исследования подтверждают необходимость эффективного управления дуальным образованием, стандартизации практической подготовки, усиления системы наставничества, а также совершенствования механизмов взаимовыгодного сотрудничества между школами и педагогическими институтами.

**Ключевые слова:** дуальное образование, педагогическая практика, интеграция школы и высшего образования, профессиональная компетенция, наставничество, практико-ориентированное обучение, инновационная педагогика, качество образования, современный учитель.

## KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonlari ta'lim tizimidan mutlaqo yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Xususan, pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayoni nafaqat nazariy bilimlar berishni, balki real ta'lim muhitida mustahkam amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni ham o'z ichiga olishi lozim. Jahon tajribasida dual ta'lim modeli aynan ana shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda shakllangan. Dual ta'lim – bu o'quv jarayonini ishlab chiqarish sohasi (yoki ushbu tadqiqot doirasida maktab ta'lim muassasalari) bilan uzviy bog'lashga asoslangan tizim bo'lib, unda talaba o'z kasbiy faoliyatini real sharoitda bosqichma-bosqich o'zlashtirib boradi.



Pedagogika institutlari uchun dual ta'limning ahamiyati beqiyos, chunki bo'lajak o'qituvchi auditoriyada olgan nazariy bilimlarini maktab muhitida darhol sinovdan o'tkazish, zamonaviy o'quv jarayonini bevosita kuzatish hamda tajribali ustoz pedagoglar faoliyatidan o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, maktablar ham pedagogika institutlari bilan hamkorlik qilishdan manfaatdor bo'lib, ular yosh mutaxassislarni ish jarayoniga bosqichma-bosqich moslashtirib boradi hamda real ehtiyojlarini oliy ta'lim tizimiga yetkazib beradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida amaliyotning ulushi sezilarli darajada kengaytirildi. Biroq pedagogik amaliyot jarayonlarini dual ta'lim modeliga mos ravishda to'liq standartlashtirish, uni izchil boshqarish hamda samaradorligini baholash mexanizmlari hanuzgacha takomillashtirishni talab etadi. Shu sababli mazkur tadqiqot maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini joriy etishda yuzaga kelayotgan muammolarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq ilmiy yechimlarni taklif etishni maqsad qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon pedagogik tadqiqotlarida dual ta'lim modeli ta'lim va amaliyot integratsiyasining eng samarali shakllaridan biri sifatida baholanadi. F. Rauner dual kasbiy ta'lim tizimini Yevropa mamlakatlari misolida tahlil qilib, nazariya va amaliyot uyg'unligi pedagogik kadrlar tayyorlashda barqaror kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishini asoslab beradi. J. Smith va K. Brennan ishga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvining bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy moslashuvini tezlashtirishdagi ahamiyatini ochib bergan. L. Darling-Hammond esa zamonaviy o'qituvchini tayyorlashda real maktab muhitiga asoslangan amaliy mashg'ulotlar muhim pedagogik omil ekanini ta'kidlaydi.

Pedagogik amaliyotning samaradorligini oshirish va mentorlik tizimini rivojlantirish masalalari ham xorijiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. P. Huddleston va L. Unwin pedagogik amaliyot jarayonida mentor-o'qituvchilarning roli hamda maktab va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi tizimli hamkorlik muhimligini asoslaydi. A. Fuller kasbiy pedagogika doirasida o'rganish jarayonining mehnat faoliyati bilan uzviy bog'liqligi o'quvchilar va talabalar kompetensiyasini mustahkamlashini ko'rsatib beradi. D. Kolbning tajribaviy o'rganish nazariyasi esa pedagogik amaliyotda refleksiya, faol ishtirok va real tajribaning o'rni muhim ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi.

O'zbekiston ta'lim tizimi doirasida dual ta'lim modeliga oid ilmiy izlanishlar ham so'nggi yillarda faollashib bormoqda. A. Jamoliddinov O'zbekiston ta'lim tizimida dual modelni joriy etish masalalarini tahlil qilib, maktab va oliy ta'lim muassasalari integratsiyasining amaliy ahamiyatini yoritadi. M. Sodiqova pedagogik amaliyotning samaradorligini oshirishda mentoring, metodik ta'minot va baholash mexanizmlarining rolini asoslab beradi. X. Xatamov kasbiy kompetensiya nazariyasi asosida bo'lajak pedagog shaxsining shakllanishida amaliy faoliyatning hal qiluvchi o'rnini ta'kidlaydi. UNESCO va OECD tadqiqotlarida esa o'qituvchilarni tayyorlashda maktabga asoslangan o'qitish modellari, raqamli texnologiyalar va sifatli ta'lim tizimlari muhim strategik yo'nalish sifatida e'tirof etiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini o'rganish uchun sifat va miqdoriy metodlar uyg'unligidan foydalanildi. Ma'lumotlar pedagogika institutlari talabalari, maktab mentor-o'qituvchilari hamda professor-o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar, yarim tuzilmali suhbatlar va amaliyot jarayonini bevosita kuzatish orqali to'plandi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar va mavjud ilmiy manbalar kontent-tahlil qilindi. Olingan empirik ma'lumotlar solishtirma va tizimli tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, nazariya va amaliyot o'rtasidagi muvofiqlik darajasi hamda mavjud muammolar aniqlandi. Natijalar umumlashtirish va mantiqiy tahlil asosida ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Dual ta'lim modeli o'quv jarayonining ikki asosiy muhitda – pedagogika institutida nazariy bilimlarni egallash hamda maktab ta'lim muassasalarida amaliy faoliyatni tashkil etish orqali amalga oshirilishini nazarda tutadi. Yevropa ta'lim tizimlarida ushbu model "School–University Partnership", "Practicum-Based Teacher Education", "Work-Integrated Learning" kabi atamalar bilan qo'llanilib, uning asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy identitetini real pedagogik faoliyat orqali shakllantirish, nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilishni bartaraf etish hamda o'quv jarayonini hayotiy vaziyatlar asosida tashkil etishdan iborat. Mazkur model doirasida talabalar erta bosqichdanoq real maktab muhiti bilan tanishadi, o'qituvchi-professorlar va maktab pedagoglari o'rtasida mentorlik munosabatlari shakllanadi, bo'lajak pedagoglarda refleksiv fikrlash, sinf jarayonlarini boshqarish,

pedagogik strategiyalarni tanlash va qo'llash ko'nikmalari jadal rivojlanadi, shuningdek, maktablardagi yosh mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyoj qisman qoplanadi. Biroq ushbu modelni mahalliy sharoitda joriy etish jarayonida bir qator tizimli muammolar kuzatilmoqda.

Eng muhim muammolardan biri nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut bilan bog'liq. Pedagogika institutlarida talabalarga asosan pedagogik nazariyalar, psixologik qonuniyatlar, dars tuzilmasi, metodik tamoyillar va davlat ta'lim standartlariga oid bilimlar beriladi. Ammo maktab amaliyotiga chiqilganda real pedagogik vaziyatlar darsliklarda bayon etilgan holatlardan tubdan farq qilishi aniqlanadi. O'quvchilarning fe'l-atvori, sinfni boshqarish, individual yondashuv, ota-onalar bilan ishlash kabi jarayonlar nazariy modellarga to'liq mos kelmaydi va bu holat talabalarining o'z bilimlarini amaliyotda samarali qo'llashida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Amaliyot maktablarida tajribali mentor-o'qituvchilarning yetishmasligi ham muhim muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Ko'plab maktablarda talabalar bilan tizimli ishlay oladigan, darslarni professional tahlil qilish, metodik maslahat berish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lgan mentorlar yetarli emas. Natijada talaba kimdan maslahat olishini bilmay qoladi, dars jarayonini tahlil qilishda qiynaladi, o'z xatolarini muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi hamda amaliyot davrida o'zini yolg'iz his qiladi.

Pedagogika instituti va maktab o'rtasidagi hamkorlikning yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi ham dual ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Amaldagi hamkorlik ko'pincha amaliyot uchun maktab ajratish, kundalik dars kuzatuvni daftarlarini to'ldirish hamda amaliyot yakunida hisobot topshirish kabi rasmiy jarayonlar bilan chegaralanib qolmoqda. Holbuki, to'laqonli dual ta'lim tizimi uchun qo'shma ilmiy tadqiqotlar olib borish, metodik seminarlar tashkil etish, pedagogika instituti o'qituvchilarining maktablarda muntazam dars kuzatishi, mentorlarning institutlarda malaka oshirishi hamda talabalar uchun individual kasbiy rivojlanish rejaları ishlab chiqilishi zarur.

Talabalarining amaliyotga tayyorgarligi yetarli emasligi ham muhim muammolar sirasiga kiradi. Aksariyat talabalar maktab amaliyotiga ilk bor 2- yoki 3-kursda chiqadi, bu paytda ular sinfni boshqarish, dars ssenariysi tuzish, interaktiv metodlardan foydalanish, baholash mezonlarini qo'llash va samarali kommunikativ yondashuvni amalga oshirish kabi zarur ko'nikmalarga hali to'liq ega bo'lmaydi. Natijada amaliyot jarayoni kutilgan darajada samarali kechmaydi.

Dars kuzatish jarayonining ko'pincha formal xarakterga ega bo'lishi ham alohida ta'kidlanadi. Talabalar ko'pincha darsni passiv tarzda kuzatib, chuqur tahlil qilmaydi, o'qituvchining metodik qarorlarini anglashga harakat qilmaydi. "Dars kuzatish varaqasi" esa ko'p hollarda rasmiy hujjat sifatida to'ldiriladi, biroq tahliliy refleksiya va kasbiy xulosalar shakllanmaydi.

Amaliyot jarayonida baholash tizimining adolatli emasligi ham kuzatiladi. Ba'zi hollarda talabaning real pedagogik faoliyati emas, balki hisobotning tashqi ko'rinishi, mentoring subyektiv fikri yoki institut tomonidan yagona standart nazorat mexanizmining yo'qligi yakuniy bahoga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa dual ta'limning asosiy tamoyillari bilan mos kelmaydi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida dual ta'limni takomillashtirish bo'yicha bir qator ilmiy-amaliy yechimlar taklif etiladi. Jumladan, talabaning maktab muhitiga bosqichma-bosqich moslashuvini ta'minlashga qaratilgan "3 bosqichli amaliyot modeli"ni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu model observatsiya bosqichida talabaning dars jarayonini kuzatish va umumiy muhit bilan tanishishini, assistentlik bosqichida o'qituvchiga yordam berish va kichik o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishni, yakuniy bosqichda esa mustaqil dars o'tish, mentor bilan birgalikda tahlil qilish va shaxsiy portfel shakllantirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, maktablarda rasmiy "mentor-laboratoriya sinflari"ni tashkil etish, institut o'qituvchilarining maktablarda muntazam dars kuzatishini yo'lga qo'yish hamda "Talaba-mentor-professor" uchburchak modeli asosida uzluksiz fikr almashish tizimini joriy etish dual ta'lim samaradorligini oshiradi. Talabalar portfelini baholashning asosiy mezon sifatida joriy etish esa amaliy faoliyatning haqiqiy natijalarini aniqlashga xizmat qiladi.

Dual ta'lim tizimini mahalliy sharoitda mukammal yo'lga qo'yish natijasida pedagog kadrlar sifati oshadi, bo'lajak o'qituvchilar o'qishni tugatguniga qadar uzoq muddatli real maktab tajribasiga ega bo'ladi, maktablar yosh mutaxassislar bilan boyiydi hamda innovatsion pedagogik yondashuvlar ta'lim jarayoniga keng joriy etiladi. Natijada oliy va umumta'lim tizimi o'rtasida uzviy hamkorlik shakllanib, butun ta'lim tizimining barqarorligi va samaradorligi ta'minlanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini takomillashtirish bugungi ta'lim islohotlarining eng strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Dual ta'lim nafaqat bo'lajak pedagogning amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ta'lim sifatining yalpi oshishiga ham xizmat qiladi. Biroq mazkur tizimni muvaffaqiyatli joriy etish uchun mentorlarni maqsadli tayyorlash, amaliyot jarayonlarini raqamlashtirish, institut va maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda talabaning amaliy tajribasini tizimli ravishda boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.



Kelajak o'qituvchisi faqat nazariy bilimlarga ega mutaxassis bo'lib qolmasdan, raqamli savodxon, metodik jihatdan yetuk, sinf jarayonini samarali boshqara oladigan, o'quvchilar bilan psixologik muloqot o'rnatish ko'nikmalariga ega professional sifatida shakllanishi lozim. Dual ta'lim modeli aynan ana shunday pedagog kadrlarni tayyorlashning eng samarali yo'llaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Rauner F. Dual Vocational Education in Europe. Springer, 2017.
2. Smith J., Brennan K. Work-Based Learning in Teacher Education. Routledge, 2020.
3. Darling-Hammond L. Preparing Teachers for a Changing World. Jossey-Bass, 2018.
4. Huddleston P., Unwin L. Teaching and Learning in Further Education. Routledge, 2021.
5. Jamoliddinov A. O'zbekiston ta'lim tizimida dual modelning joriy etilishi. Toshkent, 2022.
6. Sodiqova M. Pedagogik amaliyot samaradorligini oshirish. "Ta'lim", 2023.
7. Xatamov X. Kasbiy kompetensiya nazariyasi. Toshkent, 2021.
8. UNESCO. Teacher Education Reform and Practice. 2020.
9. OECD. Effective Teacher Preparation Systems. 2021.
10. Kozma R. ICT and Education Reform. UNESCO, 2016.
11. Fuller A. Vocational Pedagogy. UNESCO, 2019.
12. Brown T. School-Based Training Models. UK: Open University Press, 2020.
13. Kolb D. Experiential Learning Theory. Prentice Hall, 2015.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.